

ERTA TURMUSH VA UNING SALOMATLIKKA TA'SIRI

Aslonova Asalxon Telman qizi

*Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti,**Tibbiyot fakulteti, davolash ishi yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada erta turmushning tibbiy jihatlarini, xususan reproduktiv, onalar va chaqaloqlar salomatligiga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlar tahlil qilinadi. Erta nikoh bilan bog'liq erta homiladorlik natijasida yuzaga keladigan jismoniy va ruhiy asoratlar, onalar va perinatal o'lim xavfining oshishi ilmiy manbalar asosida yoritib beriladi. Shuningdek, erta turmushning oldini olishda tibbiyot xodimlarining roli va profilaktik chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda erta nikoh tushunchasi, uning kelib chiqish sabablari hamda ayniqsa voyaga yetmagan yoshlar, xususan qizlar salomatligiga ta'siri yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Erta homiladorlik, reproduktiv salomatlik, onalar salomatligi, chaqaloqlar salomatligi, tug'ruq asoratlari.

Annotation: This article analyzes the medical aspects of early marriage, with a particular focus on its negative effects on reproductive health, as well as maternal and infant well-being. The physical and psychological complications arising from early pregnancies associated with child marriage, along with the increased risk of maternal and perinatal mortality, are examined based on scientific sources. Additionally, the role of healthcare professionals and preventive measures in addressing early marriage are discussed. The study also explores the concept of early marriage, its underlying causes, and its impact on the health of minors, especially girls.

Keywords: Early pregnancy, reproductive health, maternal health, infant health, obstetric complications

Аннотация: В данной статье анализируются медицинские аспекты раннего брака, в частности его негативное влияние на репродуктивное здоровье, здоровье матери и ребёнка. Физические и психологические осложнения, возникающие в результате ранней беременности, связанной с ранним браком, а также повышение риска материнской и перинатальной смертности рассматриваются на основе научных источников. Кроме того, обсуждается роль медицинских работников и профилактические меры по предотвращению раннего брака. В исследовании также освещаются понятие раннего брака, причины его возникновения и влияние на здоровье несовершеннолетних, особенно девочек.

Ключевые слова: Ранняя беременность, репродуктивное здоровье, здоровье матери, здоровье ребёнка, осложнения при родах.

Kirish: Erta turmush- 18 yoshni qarshi olmay turib qurilgan nikoh bo'lib, bu masala global miqyosda muhim tibbiy-ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumot berishicha, o'smirlik davridagi homiladorlik onalar va chaqaloqlar o'limi ko'rsatkichlarini oshiruvchi asosiy xavfli omillaridan biridir. Ayniqsa,

bugungi kunga kelib jadal rivojlanayotgan mamlakatlarda bu holat ayollar reproduktiv salomatligining buzilishi bilan ham beixtiyor bog'liq. Jismoniy jihatdan yetilmaganlik, to'g'ri ovqatlanmaslik va tibbiy xizmatlarga jiddiy e'tibor bermaslik yosh homilador ayollar uchun og'ir asoratlarni yuzaga chiqarishi mumkin. Tibbiyot nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, yosh ayollarimiz organizmining anatomik va fiziologik jihatdan yetilmagan davrida homiladorlikka duch kelishi ko'plab jiddiy asoratlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Erta turmushning keng qamrovli masalalari akusherlik, ginekologiya va jamoat salomatligi fanlari doirasida chuqur o'rganib kelinmoqda. Reproktiv tizimning to'liq shakllanishi odatda 18-20 yosh oraliqlarida yakunlanadi. O'smir yoshdagi qizlarda bachadon, tos suyaklari to'liq shakllanmagan va gormonal jihatdan yetarli darajada rivojlanmagan bo'ladi. Natijada erta turmushning homiladorlik davri kamqonlik, gestojarlar, gormonal disbalans va homiladorlikning patologik kechishi bilan sodir bo'ladi. Bu kabi holatlardan tashqari erta turmush jinsiy yo'l bilan yuqadigan infeksiyalar xavfini ham oshiradi. Profilaktik ko'rikning yetishmasligi va tibbiy savodxonlikning pastligi sababli bu kasalliklar surunkali shaklga o'tib, bepustlik va boshqa jiddiy reproduktiv muammolarga olib kelishi mumkin.

Erta turmushning onalar salomatligiga ta'siri. Erta yoshdagi homilador ayollarda tug'ruq asoratlari sezilarli darajada yuqori ko'rsatgichga ega. Xususan, tor tos, bachadon mushaklarining to'liq yetilmaganligi, tug'ruq faoliyatining sustligi, uzoq vaqt davom etuvchi tug'ruq va tug'ruqdan keying qon ketish xavfini oshiradi. Ilmiy izlanishlarning natijalari shuni ko'rsatadiki, 18 yoshgacha bo'lgan ayollarda o'lim ko'rsatkichi 20-30 yoshdagi ayollarga nisbatan 3-4 barobar yuqoriroqdir. Ketma-ket va qisqa intervaldagi homiladorliklar esa organizmning to'liq tiklanishiga imkon bermaydi, bu holat surunkali charchoq, immunitetning yo'qolishi va somatik kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi. Bundan tashqari ona doimiy stress va xavotir, depressiya, psixologik bosim va o'ziga ishonchsizlik holatlariga tushib qolishi, oilaviy zo'ravonlikka duch kelish ehtimoli yuqori bo'lishi mumkin. Shu va shu kabi holatlarda yosh onalar nafaqat jismoniy, balki ruhiy va reproduktiv jihatdan salomatliklariga jiddiy zarar yetkazishadi. Shu sababli erta turmushning oldini olish, ayollarni tibbiy va ma'rifiy jihatdan qo'llab-quvvatlash sog'liqni saqlash tizimining muhim vazifalaridan biridir.

Erta turmushning chaqaloqlar salomatligiga ta'siri. Erta homiladorlikdan tug'ilgan chaqaloqlarda kam vaznlik holati juda ham ko'p uchraydi. Chaqaloqlarda vaznning kamligi tengdoshlariga nisbatan rivojlanishdan orqada qolishiga, nutqida nuqsonlar yuzaga kelishiga, yurganda oqsoqlanishlar kuzatilishiga sabab bo'lishi mumkin. Erta yoshdagi onalarning homiladorlik davrida muddatidan oldin tug'ilish va perinatal asfiksiya holatlari ko'proq uchraydi. Ko'p holatlarda neonatal davrda kuzatiladigan o'zgarishlar masalan, nafas yetishmovchiligi, infeksiya va nevrologik buzilishlar kelgusida bolalarning jismoniy va aqliy jihatdan rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Pediatriya amaliyotida bunday bolalar tibbiy kuzatuv va maxsus parvarishlarga muhtoj bo'lib, bu holat sog'liqni saqlash tizimi uchun ham qo'shimcha mas'uliyat hisoblanadi.

Ruhiy salomatlik jihatlarini. Erta turmush qurish yoshlarning ruhiy holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunga kelib yosh kelinlarimizda stress, xavotirli buzilishlar, depressiya holatlari juda ham keng tarqalgan hisoblanadi. Oilaviy zo'ravonlik va ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi ruhiy kasalliklar rivojlanish xavfini yanada oshiradi. Tibbiyot nuqtai nazaridan, bunday holatlar kompleks yondashuvni-tibbiy, psixologik va ijtimoiy yordamni talab qiladi.

Profilaktika va tibbiyotning roli. Erta turmushning oldini olishda tibbiyot xodimlari juda muhim rol o'ynaydi. Reproduktiv salomatlik bo'yicha ma'rifiy ishlar, oilani rejalashtirish, kontratsepsiya usullari haqida to'liq axborot berish va muntazam tibbiy ko'riklar profilaktikaning asosiy yo'nalishlari hisoblanadi. Shifokorlarimiz va tibbiyotimiz talabalari yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish orqali ushbu muammolarni kamaytirishga o'zlarining ulkan hissalarini qo'shishlari mumkin.

O'rganilgan ilmiy manbalar va tibbiy kuzatuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, erda turmush nafaqat individual salomatlik muammosi, balki jamiyat salomatligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil hisoblanadi. Erta yoshda turmush qurish natijasida yuzaga keladigan homiladorliklar ko'pincha rejalashtirilmagan bo'lib, bu holat tibbiy nazoratning sustligi, homiladorlikka tayyorgarlikning yetishmasligi va profilaktik choralar e'tibordan chetda qolishi bilan kechadi. Natijada, akusherlik asoratlari, perinatal xavflar va uzoq muddatli reproduktiv muammolar ehtimoli sezilarli darajada ortadi.

Shuningdek, erda turmush yosh ayollarning ta'lim olish, kasbiy rivojlanish va ijtimoiy faolligini cheklab, ularning iqtisodiy qaramligini kuchaytiradi. Bu holat ruhiy zo'rqi, past o'z-o'zini baholash va ijtimoiy moslashuv muammolarini yanada chuqurlashtiradi. Tibbiy-statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kompleks profilaktik yondashuv — ya'ni tibbiy, psixologik va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni birgalikda olib borish erda turmush bilan bog'liq salbiy oqibatlarni kamaytirishda samarali hisoblanadi. Shu sababli mazkur muammoni hal etishda faqatgina tibbiyot xodimlari emas, balki ta'lim muassasalari, oila va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa: Erda turmush tibbiy jihatdan jiddiy salbiy oqibatlarga ega bo'lib, u yosh onalar va chaqaloqlar salomatligiga bevosita xavf tug'diradi. Reproduktiv, somatik va ruhiy salomatlikka ko'rsatadigan ta'sirlarini hisobga olgan holda, ushbu muammoning oldini olish sog'liqni saqlash tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy tomonlama asoslangan profilaktik chora-tadbirlar sog'lom avlodni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST). Adolescent pregnancy. Geneva, [WHO](#)
2. UNICEF. Child marriage and maternal health. New York. [\[2025\]](#)
3. Cunningham F.G. et al. Williams Obstetrics. 25 th et. McGraw-Hill, [\[2018\]](#)
4. Lowdermilk D, Perry S., Cashion K Materniy and Women's Health Care. Elsevier, [\[2016\]](#)



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

5.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Reproduktiv salomatlik bo'yicha uslubiy qo'llanmalar.[[2025](#)]

6.UNICEF global and regional reports [[2025](#)]

7.WHO-Guideline on preventing early pregnancy ([23 Apr 2025](#))

8.WHO-Social determinants of health and adolescent childbearing [[2024](#)]

